

KUSHXABAR

Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi binosi yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Ayni paytda bu yerda **553** nafar o'g'il-qizlar sportning **12** turi bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'lishdi.



www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:7 (66964)

2014-yil

17-fevral

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



DIQQAT! YANGI RUKN:

FARZANDLARI SOG'LOM YURT...

Qadrli o'quvchilar! Xabaringiz bor, 2014-yil yurtimizda «Sog'lom bola yili» deb nomlandi. Bu esa katta-yu kichikni birdek quvontirdi. Chunki sog'lom bola nafaqat oilaning, balki yurtning, millatning faxri, xalqning eng katta boyligidir. Faqatgina sog'lom xalq, sog'lom millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

Istiqloldan so'ng mamlakatimizda siz aziz o'g'il-qizlarning ma'nan va jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishingiz uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ko'plab bilim maskanlari, musiqa maktablari, sport inshootlari barpo etildi. Bu ezgu ishlarning barchasi siz aziz o'g'il-qizlarning baxtli kelajagingiz uchun amalga oshirilmoqda.

Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, ta'lim, san'at, sport sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritayotganingiz, doimo oldingi safda bo'lishga intilayotganingiz, bu bilan hech kimdan kam emasligingizni isbotlayotganingiz ham sir emas. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'lur.

«Tong yulduzi» gazetasida «Sog'lom bola yili» munosabati bilan «FARZANDLARI SOG'LOM YURT...» nomli yangi rukn tashkil etdik. Mazkur ruknda beriladigan maqolalar orqali siz joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yangi bilim maskanlari, u yerda tarbiyalanayotgan iqtidorli tengdoshlaringiz haqida o'zingiz uchun nihoyatda qiziq va maroqli ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Umid qilamiz, siz ham mazkur ruknimizda faol ishtirok etasiz.

AT THE ENGLISH LESSON...
INGLIZ TILI DARSIDA...



Bilimni buyuk, o'quvni ulug' bil!

Dardona doskaga yozilgan masalani zakkolik bilan yechib, berkitilgan kahlit so'zning javobini to'g'ri topdi. Bu so'z matematika bo'lib, poytaxtimizdagi 215-maktabning 5-«A» sinfida ushbu fandan ochiq dars o'tkazilmoqda.

– Aziz o'quvchilar, yozib oling, bugungi darsimiz mavzusi «O'nli kasrlarni taqqoslash». Qani, endi menga kim shunday kasr sonlardan aytib beradi?

o'quvchilar barcha sinfdoshlari qatori shartlarni epchillik bilan bajara boshladi. – Bugungi axborot texnologiyalari asrida informatika faniga qiziqmaydigan o'quvchining o'zi bo'lmasa kerak. Kelajakda qaysi kasbni tanlamaylik, kompyuterga oid bilimlarni puxta egallamog'imiz lozim. Shu sabab, maktabda tashkil etilgan «Kompyuter olamiga sayohat» to'garigiga ko'pchiligimiz a'zomiz, – deydi Husnora Saminjonova.

Ushbu qahramonlarimizni suratga tushirgach, yana bir matematika fani o'qituv-



So'ng, ularni taqqoslashni boshlaymiz, – deya Feruza opa Boboyeva o'quvchilarni sonlarning sehirli olamiga boshlaydi. Bolalar ustozlarining so'zlarini diqqat bilan tinglagach, turli masalalar- u topshiriqlarni yechishga kirishib ketishadi. Biz esa maktabda o'qituvchilarning qizg'in tayyorgarliklari-yu o'quvchilarning katta qiziqishlari bilan o'tkazilayotgan matematika va informatika fani oyligini kuzatishda davom etdik.

Mana, informatika xonasi. Gulnora opa Sharipova ochiq darsni yanada mazmunli o'tkazish maqsadida 8-«A» sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, musobaqani boshlab yubordi. Husnora, Abror, Ulug'bek va Husan kabi hozirjavob

chisi Nilufar opa Abduqodirovning ochiq darsini kuzata boshladik. Buni qarangi, 7-«A» sinfida ham dars juda maroqli o'tmoqda. Shu sinf o'quvchisi Hasan Sharipov doskaga ilingan ko'rgazmali material, ya'ni qog'ozdan yasalgan quyunchaning savatidan bitta sabzini oldi-yu, uning orqasida yozilgan kvadratlar ayirmasi formulasini to'g'ri topdi va besh bahoni qo'lga kiritdi.

Aziz o'quvchim! Mazkur bilim dargohida o'tkazilayotgan fan oyligini o'qib, «Bizning maktabda ham...», deya gap boshlamoqchi bo'lsangiz, fikrlaringizni qog'ozga tushirib, bizga maktub yo'llang! Biz esa yurtimiz maktablariga tashrif buyurishda davom etamiz.

Sayyora QODIROVA

Maktabimizning faollari zalida o'quvchilar «Ota oilaning tayanchi, ustuni» mavzusidagi tadbirni boshlashga shay turishibdi. Mana, bayram boshlanib, 8-«A» sinf o'quvchilari sahnaga chiqib kelishmoqda.

OTALARGA ATALGAN TADBIR



Ular ijrosidagi she'r-u qo'shiqlar, sahna ko'rinishlarining barchasi otalar- u buvalarga ataldi. Otalarning o'imi va so'zi nafaqat oila, farzand tarbiyasida, balki maktab hayotida ham muhim o'rin tutadi.

Tadbirdagi har bir chiqishda ta'kidlanganidek, ota xonadon ustuni, posbonidir. Ularni hurmat qilish, e'zozlash, sha'niga maqtoqli so'zlar yog'dirish esa Sizning farzandlik burchingizdir. Barchaga quvonch bag'ishlagan ushbu tadbir so'ngida otalar o'g'il-qizlaridan mamnun bo'lganliklarini, ularning kamolini ko'rish baxt ekanini aytib o'tishdi.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA, Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 198-maktab o'qituvchisi

Mana, bir necha yildirki, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bemor va imkoniyati cheklangan tengdoshlaringizni sog'lomlashtirish maqsadida ko'plab xayrli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

EZGU MAQSADLAR SARI

Joriy yilning 9-16-fevral kunlari Koreya Respublikasining Yonsej universiteti «Severance» hospitalining malakali shifokorlari tomonidan yurtimizning bir necha hududlarida tibbiy ko'rik tashkil etildi.



Aksiya doirasida xorijiy shifokorlar poytaxtimizdagi 9-umumta'lim maktabida, 24-Mehribonlik uyida, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 1-, 48-umumta'lim maktablarining 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarini oftalmologiya sohasi bo'yicha chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.

Xabaringiz bo'lsa, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Germaniyaning «Friedensdorf International» xalqaro tashkiloti bilan uch tomonlama hamkorlik bitimi imzolangan edi. Hamkorlik doirasida 2002-2014-yillar

davomida 231 nafar o'zbekistonlik bemor tengdoshlaringiz terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari nuqsoni va boshqa tashxislar bilan Germaniyaning nufuzli klinikalarida davolanishdi.

Joriy yilning 12-fevral kuni navbatdagi 13 nafar o'zbekistonlik bemor bolalar Germaniya klinikalarida davolanish uchun jamg'arma vakillari hamrohligida mazkur davlatga jo'nab ketdilar. 16-fevral kuni esa ushbu davlatdan 7 nafar sog'lomlashtirilgan bolalar yurtimizga qaytib kelishdi.

O'z muxbirimiz

SO'Z SEHRI

Yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalarida Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur bobolarimizning tavalludiga bag'ishlab ijodiy kechalar o'tkazilmoqda.



Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 220-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Feruza Zufarova ham «Bobolari buyuk yurtning farzandlarimiz» shiori ostida ochiq dars o'tkazdi. 5-«A» sinf o'quvchilari shoirlarimizning g'azal, ruboiy, tuyuq va hikmatli so'zlaridan namunalar yod olishdi. Shu

sinf o'quvchisi Sherzod Sobirov Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ingliz tilida so'zlab berdi. Ayniqsa, o'quvchilarning shoirlar hayotiga oid tayyorlagan sahna ko'rinishi o'qituvchi hamda ota-onalarda katta taassurot qoldirdi.

Sofiya NAZAROVA. Muallif olgan surat

YURTNING ULUG' SIYMOSI

Buyuk bobokalonimiz Bobur Mirzoning butun umri og'ir sinovlar bilan o'tgan bo'lsa-da, u doimo go'zallikdan zavq olib yashadi, ko'plab ruboiy va g'azallar yozib, she'riyat shaydolari qabidan joy egalladi.

Bobur g'azallarini mutolaa qilar ekanmiz, dilimizda shoir ijodiga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom tuyg'ulari jo'sh uradi. Va biz shunday ulug' insonni dunyoga keltirgan elning farzandlari ekanimizdan qalbimiz faxrga to'ladi.

Kuni kecha maktabimizda ulug' bobokalonimiz tavalludiga bag'ishlangan adabiy-badiiy kecha o'tkazdik. Bayram tadbirida Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi voqealarni sahnalashtirdik, bir nechta devoriy gazetalar tayyorladik. Ayniqsa, sinfdoshim Behruzning Bobur rolini maromiga yetkazib

ijro etgani tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Sahnada Bobur ruboiylarini katta hayajon bilan aytayotgan sinfdoshlarimni kuzata turib, ko'z oldimda bobokalonimizning ulug' siymosi gavdalangandek bo'ldi.

Mahbuba ABDULAZIZOVA,
Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi
72-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTON - TILLARDA - DOSTON

Dunyoda xalqlar juda ko'p. Lekin ular orasida o'zbek xalqi o'zining milliy urf-odatlari, bolajonligi, mehmondo'stligi-yu oliyanob fazilatlarini bilan alohida ajralib turadi. Bu so'zlarning tasdig'i sifatida ko'plab o'zbek xonadonlarida qaldirg'och yoki chumolilar in qurib olganligini aytishimiz mumkin. Chunki qaldirg'och ham, chumoli ham tinch va osuda xonadonda in quradi.

Yana xalqimizning ko'zni quvnatadigan atlas-u adras kabi milliy liboslari ham ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Yurtimizning qaysi shahriga bormang, bir-biridan go'zal, mahobatli tarixiy obidalarini, madrasa-yu maqbaralarni ko'rib, shu muqaddas Vatanda tug'ilganimizdan faxrlanamiz. Shuningdek, yurtimiz bozorlaridagi olma, anor, behi kabi tilyorar mevalar bog'rog'larimizning ajoyib tarovatidan darak berib turadi.

Aziz tengdoshlar, jonajon O'zbekistonimizning har bir qarich yerini asrab-avaylaylik, qadriga yetaylik!

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

Yo'ldoshali bilan ko'p qavatli uyda birga turamiz. Uning uyimizdan sal naridagi maktabning 6-sinfida o'qishini yaxshi bilaman. Ammo meni hayron qoldirgani shuki, har kuni barvaqt ishga otlanaman. Shu paytda Yo'ldoshali ham maktabga shoshib ketayotgan bo'ladi. Undan maktabga buncha erta borishining sababini so'rash biroz noqulay.

Bir kuni ertalab uyimiz yo'laklarini supuradigan farrosh xola bilan gurgulashib qoldim. Shu payt yo'lagimizdan Yo'ldoshali chiqib keldi-da, bizga salom berganicha maktab tomon yurib ketdi.

– Bir narsaga hayronman, – dedim xolaga qarab. – Maktab uyimizdan nari borsa o'n-o'n besh daqiqalik yo'l. Bu bola namuncha barvaqt maktabga otlanmasa?

– Ey, – dedi xola yuziga tabassum inib. – Bu baraka topkur, ajoyib bola. Mening nabiram bilan bir sinfda tahsil olishadi. U ham xuddi sinfdoshi Yo'ldoshaliga o'xshab ertalabdan maktabga

shoshiladi. Yo'l-yo'lak odamlar tashlab ketgan turli yelim xaltalarini terib, chiqindixonaga tashlab o'tishadi.

Bolalarning bu ibratli ishi meni nihoyatda quvontirib yubordi. Yana bir

Maktabimizda o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlari uchun turli to'garaklar tashkil etilgan. Hatto kichik yoshdagi sinf o'quvchilari ham sevimli mashg'ulotlari bilan mashg'ul bo'lib, hunar sirlarini puxta o'rganishmoqda.



HAVASIMIZ KELADI

1-«D» sinf o'quvchisi Nigina Hakimova ham «Munchoqli bezak» to'garagi a'zosi. Bu itiluvchan qizning o'z qo'llari bilan yasagan bir-biridan chiroyli savatchalari, munchoqli daraxtchalarini ko'rib, hatto biz yuqori sinf o'quvchilarining ham havasimiz keladi. Ustozlarimiz esa uning namunali xulqi va a'lochi o'quvchi ekanligini ta'kidlab, hamisha tengdoshlariga

o'mak qilib ko'rsatishadi. Maktabimiz ingliz tili faniga ixtisoslashgani bois, hozirda Nigina bu tilni mukammal o'rganish harakatida. Uning muallimasi Nargiza Tursunboyeva ham ta'lim dargohimizning jonkuyar, fidoyi ustozlaridan biri sanaladi.

Men bu yosh iste'dod egasining oydin orzulari ushali shiga tilakdoshman.

Nazokat ABDURAHMONOVA,
poytaxtimizdagi 178-davlat ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

YO'LDOSHALINING YO'LI

Muhokama uchun mavzu



Ma'lum bo'lishicha, ularning ustozlari ona yerimizni asrab-avaylash lozimligi borasida o'quvchilar bilan ajoyib suhbat o'tkazibdi.

– Yer bizni boshida ko'tarib turibdi. Biz duch kelgan joyga tashlagan chiqindilar uning ko'rkinini buzadi. Bu unga ozor yetkazishi mumkin, – dedi Yo'ldoshali ariq bo'yiga kimdir tashlab ketgan yelim xaltani astagina olarkan. – Bizning sinfimizdagi barcha bolalar uydan maktabga yoki maktabdan uyga qaytish chog'ida tevarak-atrofniki ko'zdan kechirib, yo'llarni turli chiqindilardan tozalashga odatlangan. Bundan ustozlarimiz ham mamnun.

Yo'ldoshali maktabga yetguncha yana ikki-uch yelimxaltani yerdan olib, men bilan xayrlashib, yo'l chetidagi chiqindixonaga tomon yo'l oldi. Men esa uning ortidan havas bilan boqdim.

tomoni, ularni bunday xayrli ishga undagan inson haqida bilish men uchun qiziq edi. Bir gal yo'lak oldida Yo'ldoshalini atayin kutib turdim. Uydan chiqqanida, piyoda maktabiga yetguncha u bilan birga suhbatlashib bordik.

Yusuf ABDULLAYEV

G'AZALLARGA MAHLIYO YURAK

G'azal mulkining sultoni bobokalonimiz Hazrat Navoiyning sehrli baytlari kirib bormagan xonadon yo'q.

Yaqinda tahririyatimizga oltmish yoshni qoralagan muallima ayol shogirdlari bilan kirib keldi. Ular qahraton qishning sovuq kunlari bo'lishiga qaramay, olis Surxon vohasining Sariosiyo tumanidan salkam ming chaqirimlik yo'lni bosib kelishibdi. O'zini Gulnoz Berdiyeva deya tanishtirgan ayol Sariosiyo tumani, Sharg'un shaharchasidagi 5-umumta'lim maktabida 27 yildan buyon yosh avlodga ona tili va adabiyot fanidan saboq berar ekan. Ayni paytda maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari sifatida faoliyat yuritayotgan muallima tahririyatga o'zi bilan birga kelgan ayolni biz bilan yaqindan tanishtirdi:

– Bu ayol Sharifa Aliboyeva, tumanimizning g'azalxon ayollaridan biri. U birgina Hazrat Navoiydan yuzdan ortiq g'azalni yoddan biladi. Maktabning 8-sinfida tahsil olayotgan o'g'illari Samandar Rahmonov 52 g'azalni, endigina 1-sinfda ta'lim olayotgan jajji qizchasi Shahzoda Rahmonova esa Navoiy Hazratlaridan 30 ta g'azalni yodlagan. Biz ustoz-shogirdlar so'z mulkining sultoni Navoiy tavalludining 573 yillik to'yida ishtirok etish niyatida keldik.



Ko'zlari quvonchdan porlab turgan qizaloqning:

*Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas...*

deya yangrayotgan ovoizidan xonadagi muxbirlar beixtiyor hushyor tortishdi. To'g'risi, endigina 6 yoshga qadam qo'ygan bu qizaloqning ijrosidan hayratda qoldik. Ko'z oldimda bolalik yillarim jonlandi. Men ham Boborahim Mashrab g'azallarini hali maktabga bormay yod olgandim.

Gulnoz opa Berdiyevadan bu o'quvchilarni ko'p g'azal bilishlarining sirini so'raganimizda, quyidagicha javob berdi:

– Har yili Sariosiyo tumani Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi metodisti Davlat aka Mahmudov boshchiligidagi «Kim ko'p g'azal biladi?» ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. Tanlovda tumandagi 70 dan ortiq umumta'lim maktablaridan yuzlab g'azalxon o'quvchilar ishtirok etishadi. Mazkur bellashuvning an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgani, tuman o'quvchilarining ulug' bobokalonlarimizning bebaho xazinalarini chuqur o'rganishiga katta turtki bo'lmoqda.

*Olis Sariosiyo tumanida yosh avlodni ajdodlari-
mizga munosib farzand bo'lib ulg'ayishlari
yo'lidagi bu xayrli an'anani eshitib, benihoya
mamnun bo'ldik. Niyatimiz, ushbu tanlov
respublikamiz bo'yab har yili an'anaviy tarzda o'tkazilsa, ayni muddao
bo'lardi. Zero, bugun yurtimizda yoshlarning ta'lim olishi uchun barcha
shart-sharoitlar yaratilgan ekan, ular ko'proq bilim olishi, yuksak
cho'qqilar sari intilib yashashi zarur.*

AXTAMQULI.

Yu. ABDULLAYEV, olgan surat

Akmaljon har kungidan ertaroq turib badantariya mashqlarini bajardi va yuz-

– Barakalla, o'g'lim, doira chalishni uddalabsan, – deya farzandining peshanasidan o'pib qo'ydi.

Ha, Sizga tanishtirmoqchi bo'lganimiz, Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabining 5-«G» sinf o'quvchisi, yosh doirachi Akmaljon Ahmedov iqtidorli tengdoshlarimizdan biri. U, mana bir necha yildirki, tumandagi 6-Madaniyat va aholi dam olish markazi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Hilola» bolalar folklor jamoasida taniqli san'atkor Jamilaxon Hamidovdan san'at sir-asrorlarini qunt bilan o'rganib kelmoqda.



qo'lini yuvib, ayvondagi tuvaklarda o'stirayotgan gullarini bir-bir ko'zdan kechirdi. Jonli burchakda parvarishlayotgan to'tiqush va maynalarga don, suv berdi. So'ngra, ertalab tandirda oyijonisi yopgan issiq kulcha non bilan nonushta qilishga o'tirdi. Nonushta qilgach, oynayi jahon orqali namoyish etiladigan bolalar folklor jamoalarining «Ko'hna zamin ohanglari» Respublika televizion tanlovining navbatdagi soni boshlanishini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Boisi, bu galgi ko'rsatuvda Akmaljon «Hilola» bolalar folklor jamoasi tarkibida «Muchal to'yi» nomli musiqiy dasturda doira chalib chiqadi-da.

Akmaljon oyisi bilan birga ko'rsatuvni tomosha qilgan ekan, Gulchehra opa unga:

– To'garakka qatnay boshlaganimga hali ko'p bo'lgani yo'q. Shu qisqa vaqt oralig'ida to'garak rahbarimiz Jamshid akadan doira chalish usullarini, ustozimiz Jamila opamdan o'zbek xalqining qadimiy kuy-qo'shiqlari, raqslarini qunt bilan o'rganmoqdaman. Kelajakda O'zbekiston xalq artisti Qahramon Dadayev kabi mohir doirachi bo'lishni niyat qilganman, – deydi Akmaljon.

Biz san'atni jon-u dilidan sevgan iqtidorli tengdoshingizga, orzularing ushalsin, deymiz.

Muhammadjon QOZOQBOYEV,
Respublika xalq ijodiyoti va
madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-
metodik markazi bo'lim mudiri

*Men yashayotgan Nurota shahrida shirin va
shifobaxsh chashma suvi oqadigan ariqlar ko'p.
Ullarning aksariyati hovlilarning ichidan oqib o'tadi.*



Bir kuni maktabdan kelsam, buviyonim harsillaganicha engashib, ariqni oqib kelayotgan turli chiqindilardan tozalayotgan ekanlar.

Buni ko'rib, biroz jahlim chiqdi va: – Axir bularni biz tashlaganimiz yo'q-ku, oqib ketaversin, buviyon. Kimdir ifloslagan ariqni nega endi biz tozalashimiz kerak? – dedim.

Bu gapimdan buvim biroz ranjib, meni yoniga chaqirdi va:

– Qizim, suv nihoyatda ulug' ne'mat. Yer yuzida toza ichimlik suvining bir tomchisiga zor bo'lib yashayotgan odamlar qancha. O'zingni bir lahza ularning o'miga qo'yib ko'r, bu obihayotning qadrini ana shunda anglaysan. Chashmaning suvidan

ichish uchun olis manzillardan tashrif buyuruvchi mehmonlarni ko'p ko'rgansan. Ular bu suvni e'zozlab, uylariga ham olib ketishadi. Shunday bo'lgach, yonimizda oqib turgan bu ilohiy ne'matning sofligi, tozaligini asrashimiz kerak. Ko'pchilik buni anglab yetmasligi mumkin, uni to'g'ri tushuntirish barchamizning burchimizdir, – dedilar-da, ishlarini indamay davom ettiraverdi. Men ham aytgan gapimdan xijolat bo'lib, u kishiga yordamlashishga kirishdim...

Nihoyat, suvning yuzi chiqindilardan tozalanib, yana Quyosh nurlarida oynadek yaltiray boshladi. Shu tobda ko'nglim ham yorishib ketgandek bo'ldi.

Pokiza ZIYOVUDDINOVA,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
3-maktabning 6-sinf o'quvchisi

AT THE ENGLISH LESSON... INGLIZ TILI DARSIDA...



«Good morning, teacher!» O'quvchilar ustozlari bilan salomlashib olgach, odatdagidek o'qituvchi darsni uyga berilgan vazifani so'rashdan boshlaydi. Ikki nafar o'quvchi doska yoniga chiqib, o'tgan mavzu yuzasidan ingliz tilida suhbatni boshlab yuborishdi...



Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 28-umumta'lim maktabida ingliz tili fani chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. Ushbu fan o'qituvchilari har bir darsni qiziqarli o'tishi uchun alohida tayyorlik ko'rishadi. Chunki bolajonlarning kelgusida chet tilini mukammal o'rganishlari uchun butun mas'uliyat ularning zimmasida-da.

– Maktabimiz Istiqlol yillarida yangidan barpo etilgan ilm



maskanlaridan biri sanaladi. Ta'lim dargohimizda o'quvchilarning bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Prezidentimizning «Chet

tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan o'quvchilarning boshidan maktabimizning 1-sinf o'quvchilariga

ingliz tili fani o'yin tarzida o'qitila boshlandi. 2–9-sinflar kesimida esa o'quvchilarga bu fan bo'yicha chuqurlashtirilgan tarzda saboq berilmoqda. Maktabimizda 4 ta maxsus ingliz tili xonasi lingofon hamda zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan, – deydi maktab direktori Malika Azimova.

Ular bilan suhbatlashgach, ingliz tili darsi o'tilayotgan xonaga yo'l oldik. Dars jarayonini kuzata turib, chet tilida erkin so'zlashayotgan 7-«A» sinf o'quvchilariga havasimiz keldi.

– O'quvchilarning darsni yaxshi o'zlashtirishlari uchun CLT, direct, audiolingual,

methods singari usullardan foydalanaman. Bu usullar o'yin tarzida bo'lib, bolalarning yangi mavzuni o'zlashtirishida nutqini, fikrlashini o'stirishda yordam beradi, – deydi ingliz tili fani o'qituvchisi Zebo Valiyeva.

Bu ta'lim maskanida o'qituvchilar o'quvchilarning ta'lim olishi, chet tilida ravon va chiroyli muloqot qila olishlari uchun bor kuch-g'ayratlarini, tajribalarini ishga solishayotganining guvohi bo'ldik.

Sizning maktabingizda ingliz tili fani qanday o'tiladi, aziz o'quvchilar? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

COLOURS – RANGLAR

Yellow - sarq
Blue - ko'k
Brown - jigarrang
Orange - olov rang
White - oq
Green - yashil
Black - qora
Red - qizil
Pink - pushti

Full the cells with colours

Kataklarni ranglar bilan to'ldiring

1 Y
2 I
3
4
5 W
6
7

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Dinora SHAKIROVA tayyorladi

SAY THIS PETER AND TRANSLATE IT TEZ AYTISHNI AYTING VA TARJIMA QILING

She sells seashells on the seashore.



READ THESE DIALOGUES FOR GOOD AND BAD WEATHER

I

A: – It's a fine day today, isn't it?
B: – Yes, it's nice and bright this morning.
A: – Yes: Much better than yesterday. It's good to see the seen again.
B: – Let's hope it will keep fine for the weekend.

II

A: – What a nasty day, isn't it? It has been raining since yesterday morning.
B: – They say it is going to get even colder.
A: – Oh, no! I hate cold and rain.
B: – So do I. Let's hope it won't last.

MAKE UP YOUR OWN DIALOGUES USE THE FOLLOWING WORDS

Cool and wet
Bright and sunny
Warm and frosty
Hot and stuffy



Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 81-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Shoira YUSUPOVA tayyorladi

SUVNI TEJAYLIK

Ichimlik suvi bu obihayotdir,
Azaliy kuylangan she'r-u bayotdir.
Cho'lmi u, dashtmi u yoki biyobon –
Suv bilan yashnaydi, jahon oboddir.

Suvni tejamoqlik odatdir bizga,
Tejamoq burch erur har o'g'il-qizga.
Tabiatni seving, asrang doimo,
Uning har tomchisi madordir sizga.

Avaylab ishlatmoq bir shior bo'lsin,
Ariq va jilg'alar suvlarga to'lsin.
Suv bor-ki – hayot bor, unutm, do'stim,
Borliq suvsizlikni mutlaq unutsin.

Raxshona ZIYOVIDDINOVA,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi
60-umumta'lim maktabining 5-«E» sinf o'quvchisi



QUCHOG'INGGA CHORLAYSAN

Maktabim, jon maktabim,
Quchog'ingga chorlaysan.
Oftob kabi yo'limga,
Nurlar sochib porlaysan.

Quchog'ingda ulg'aydim,
Senga rahmat aytaman.
Bilim olib har kuni,
Uyga mamnun qaytaman.

NAQADAR GO'ZAL

Bolajon so'zi naqadar go'zal,
Uning orzulari misoli asal.
Dunyoning jamiki bolalarini
Onalar e'zozlab yurar har mahal.

MENING SUYANCHIM

Ko'zlarinigiz to'la sevinchim,
Siz mening qalbidam quvonchim,
Mehribonim hamda ishonchim,
Onajonim yolg'iz suyanchim.

Sadoqat ABBOSOVA,
Namangan viloyati, Namangan
shahri, 18-umumta'lim
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi



AZIZ TUPROG'IM

Oiladan boshlanar
Asli Vatan degani,
Mening aziz tuprog'im,
Yer yuzining chamani.

Go'zallikda tengi yo'q,
Hech bir yurtidan kam emas.
Barcha uning husniga,
Aylaydi dildan havas.



Hamma xursand, hamma shod,
Tarixidir bir jahon.
Bunday o'lka qayda bor,
Tinch, osuda, nurafshon.

Bir so'zni aytay sizga:
E'zozlaylik yurtimiz.
Kelajak mevalari,
Aziz yoshlar biz-u siz.

Roziyaxon SHUKURXO'JAYEVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
240-maktabning 4-«G» sinf o'quvchisi

(Hikoya)

MEHRIBON BOLAJON



Kunlarning birida ikki do'st Sobir va Akmal maktabdan uyga qaytishayotib, to'satdan yo'lda qorayib yotgan narsaga ko'zlari tushdi. Borib qarasha, jarohatlangan chumchuq bolasi ekan. Sobirning engashib qushchani qo'lga olayotganini ko'rgan Akmal:

– Bu qushchani nima qilmoqchisan? – deb so'radi.

– Uni uyga olib borib, itim Olaparga bermoqchiman, – javob qaytardi Sobir.

Akmalning bu gapdan jahli chiqdi va shunday dedi:

– Hech qachon bunday qilmaysan. Chunki men bunga yo'l qo'yamayman. Axir u ham tirik jon, yashashi kerak.

Ikki do'st uzoq tortishishdi. Nihoyat, Akmal

chumchuq bolasini uyiga olib ketdi. U yaralangan qushchani jarohatiga malham qo'ydi, unga suv, don berib, mehr bilan parvarishladi. Tez kunda qushchani jarohati butunlay tuzaldi.

Bir kuni Akmal ko'chada o'ynayotib, daraxt shoxidagi chumchuq iniga va u yerda chirqillab turgan ona chumchuqqa ko'zi tushdi. U o'zi parvarish qilgan qushcha shu chumchuqning bolasi ekanligini darrov sezdi. Uydan palaponni olib kelib, in ichiga qo'ydi. Ona chumchuq minnatdorchilik bildirgandek uning atrofida uzoq aylandi.

Akmal qilgan ezgu ishidan mamnun bo'lib, uyiga qaytdi.

Shohista SOTIMBOYEVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
33-maktab o'quvchisi

BILMASVOY

Bilmasvoy odatdagidek maktabga kechikib bordi.

Ona tili darsida o'qituvchi uni doskaga chiqardi:

– Darak gapga ikkita misol ayt-chi.

Bilmasvoy bosh qashib tilga kirdi:

– Muslima oyisi bilan do'konga kirdi, – dedi-yu jim qoldi.

– Ha, yaxshi, ikkinchi misolni ham ayt-chi, – dedi ustoz.

– Mohira oyisi bilan do'konga kirdi.

– Iye, ikkala misoling ham bir-biriga o'xshab qoldi-ku. Boshqa gap top, – dedi ustoz jiddiy ohangda.

Muslima muzqaymoqni o'g'rincha olib, cho'ntagiga soldi,

– dedi Bilmasvoy o'zini bilag'onlardek tutib. –

Bu ham darak gap, ustoz, – deb yana qo'shib qo'ydi.

Uning so'ziga sinfdoshlari baravariga kulib yuborishdi...

Abbos TO'RAYEV,
Respublika
ixtisoslashtirilgan
san'at maktab-internatining
3-sinf o'quvchisi





barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Yaqinda qurilib, foydalanishga topshirilgan poytaxtimizning Hamza tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabida 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar sportning turon yakkakurashi, boks, muay-tay, dzyudo, erkin kurash, velosport, taekvando VTF, og'ir atletika, badiiy gimnastika, belbog'li kurash, o'zbek jang san'ati va basketbol sport turlari bilan shug'ullanmoqdalar.

Ayni paytda sport maktabida 123 nafar qizlar,



ORZULAR USHALGAN MASKAN

Sog'lom avlodni tarbiyalashda, avvalo, sport va jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Shu bois, davlatimiz tomonidan bolajonlarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun

430 nafar o'g'il bolalar sport bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, ularning 180 nafari 2 toifali sportchilar, 12 nafari sport ustalaridir.

2013-yilda ushbu maktabning 98 nafar yosh sportchilari respublika miqyosida o'tkazilgan

musobaqalarda faol ishtirok etib, 1 ta oltin, 26 ta kumush va 19 ta bronza medalni qo'lga kiritdilar.

Shuningdek, sport maktabining 6 nafar tarbiyalanuvchisi muay-tay bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, 2 nafari jahon chempionati g'olib va sovrindorlaridir.



– Meni do'stlarim gohida «O'nta medali bor bola», deb chaqirishadi. Bu maqtovlarni eshitganimda, medallarim sonini yanada ko'paytirish ishtiyoqi tug'iladi. Orzularimga yetishish uchun esa ko'proq sport bilan shug'ullanishim zarurligini his qilaman. Sportning erkin kurash turi bo'yicha tuman, shahar musobaqalarida qatnashdim va faxrli o'rinlarni egalladim. Buning uchun barcha murabbiylarimga, xususan, Ravshan aka Asraqulovga rahmat degim keladi, – deydi tumandagi 216-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Farhod Tohirov.

– Uymiz yaqinida joylashgan

ushbu sport maktabi biz uchun ajoyib sovg'a bo'ldi, – deydi 206-maktabning 7-«A» sinf

o'quvchisi Asror Norimov. – Men bu yerda sportning erkin kurash turi bilan shug'ullanaman.

Qisqa vaqt ichida tuman, shahar musobaqalarida ishtirok etib, sovrindorlar safidan joy oldim. Sport meni nafaqat jismonan kuchli va baquvvat bo'lishimga, balki sog'lom fikrlashimga, odobli, a'lochi o'quvchi bo'lishimga xizmat qilmoqda.



Sport maktabi tarbiyalanuvchilarining quvnoq kayfiyatlari bizni ham sevintirib yubordi. Sportsevarlarning deyarli barchasi bir gapni takror va takror aytishdi: «Yurtimga munosib farzand bo'laman». Biz esa, niyatingiz ijodat bo'lsin, deya ularni suratga olishga shoshildik.

UMID NIHOLLARI

Bugun umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'g'il-qizlarning eng sevimli sport bellashuvlariga aylangan «Umid nihollari»ning ayni paytda joylarda tuman bosqichlari nihoyasiga yetib, viloyat bosqichlariga qizg'in tayyorgarlik ketmoqda.

G'OLIBLAR KEYINGI BOSQICHDA

Chiroqchi tumani viloyat markazi Qarshi shahridan olisda joylashgan chekka tumanlardan sanaladi. Ayni paytda bu yerda bolalar sporti rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2013-yilning oktabr va noyabr oylarida tumanda «Umid nihollari» sport musobaqalarining maktab bosqichi o'tkazildi va unda 1-4, 5-7 va 8-9-sinflar o'rtasidagi bellashuvlarda 68811 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Mavjud sport turlaridan g'oliblikka erishgan sportchi-o'quvchilar tumanda 12 hududga bo'lingan holda ikkinchi bosqich bahslariga kirishdi. Uch kun davom etgan qiziqarli va murosasiz bellashuvlar yakunida voleyboldan o'g'il bolalar o'rtasida 94-maktab, qizlar o'rtasida 21-maktab, futboldan 1-maktab, sport gimnastikasidan o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida

58-maktab, erkin kurashdan 47-maktab, yunon-rum kurashidan 36-maktab, taekvandodan 2-maktab, qo'l to'pidan o'g'il bolalar o'rtasida 3-maktab, badiiy gimnastikadan 2-maktab, boksdan 2-maktab, og'ir atletikadan 40-maktab, yengil atletikadan 21-maktab, basketboldan 2-maktab, suzishdan 13-maktab hamda dzyudodan 8-maktab o'quvchilari faxrli birinchi o'rinni egallab, keyingi bosqich yo'llanmasini naqd qilishdi hamda tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alariga ega bo'lishdi.

Eslatib o'tamiz, g'oliblar 25-26-mart kunlari navbatdagi bosqichda viloyatning Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari o'quvchilari bilan o'zaro bellashadi.

Shoh MUHAMMAD

Feruza SOYIBJON qizi



Keyingi yillarda farzandlarimiz o'rtasida sportning ko'plab turlari tobora ommaviylashib bormoqda. Yaratilayotgan shart-sharoitlar, ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor natijasida yosh sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishayotir.

Kuni kecha Guliston shahrining Farhod mahallasida joylashgan sport majmuasida «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab mahallalararo sport musobaqalari o'tkazildi. Mazkur tadbirda umumta'lim maktablarining 1998-2000-yillarda tug'ilgan o'quvchilari sportning boks, shaxmat, badiiy gimnastika turlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Aytish mumkinki, musobaqa katta

bayramga aylanib ketdi. Har bir mahalladan kelgan yosh sportchilar o'zlarining bor mahorat va imkoniyatlarini ishga solib, g'oliblik sari astoydil intildilar. Bu esa bellashuvlarning har tomonlama murosasiz o'tishiga xizmat qildi.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi shahar bo'limi homiyligida o'tgan musobaqalarning badiiy gimnastika turida 40 nafar yosh nafosat malikalari o'zlarining betakror chiqishlari bilan bellashuvlarga puxta hozirlik ko'rganliklarini namoyish etishdi. Bahslar yakunida Madina Mamadaliyeva, Sevinch Qurbonova hamda Dilnoza G'aniyeva mos ravishda 1-, 2- va 3-o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Shaxmat bo'yicha Madina O'ktamova, G'anisher Ibrohimov va Madina Bo'ronova hamda boks musobaqalarida Eldor Iskandarov, O'skan Abdullayev va Temur Alisherov g'olib bo'ldilar.

Musobaqa g'olib va sovrindorlari Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi shahar bo'limi hamda mahalla fuqarolar yig'inlarining diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanishdi.

Sa'dullo TURSINOV

O'QITUVCHILAR, OTA-ONALAR VA O'QUVCHILAR DIQQATIGA!



«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar

Manzil: 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
 Web: www.iptd-uzbekistan.uz
 e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
 Marketing va tarqatish bo'limi:
 Tel (+998 71) 244-37-81, 244-87-55.
 Faks: (+998 71) 244-37-81.



BO'SH O'QITIRMA, BO'SH QO'GIR!

Z «Z» HARFI BILAN BOSHLANADIGAN ZINALI BOSHQOTIRMA

2. Ikki harflik bo'g'in. 3. Yaltiroq bezak.
 4. Temir kushandasi. 5. Terisi yo'l-yo'l hayvon. 6. O'zbek xalq ertagi qahramoni. 7. Bilimdonlarning intellektual o'yini. 8. O'pka shamollashi kasalligi. 9. Yetuk, kuchli so'zlarining sinonimi.
 10. Ayollarning qadimda bo'lgan taqinchog'i.
 11. Gulxaniy asari.
 12. Ziyon, zarar yetkazuvchi.

DILOROM

peyzanda qizsa!

XUSHXO'R SALAT

Tayyorlanishi:
 Qaynatilgan tovuq, mol go'shti, pomidor va bodring somoncha shaklida to'g'raladi. Sarimsoq piyoz va kashnich maydaroq to'g'ralib, yuqoridagi masalliq'larga qo'shiladi. Soya, murch va yanchilgan qalampir qo'shib aralashiriladi. Tayyor bo'lgan salat chiroyli idishlarda dasturxonaga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!
NARGIZA tayyorladi

8

TONG YULDUZI

Bosh muharrir
Feruz ADOLOVA

Muassislar:
 O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
 «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
 «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qaratilgan «Iman sakhara xuyrya jamg'armasi».

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIH HAY'ATI:
 Omonulla YUNUSOV,
 Abdug'ani XOLBEKOV,
 Bahodir G'ANIYEV,
 Svetlana INOMOVA,
 Murtazo SULTONOV,
 Zoir ISAJONOV,
 Feruz JALILOVA,
 Sa'dullo TURSINOV
 (Bosh muharrir o'rinbosari),
 Sobitxon TURG'UNOV,
 Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
 Axtamqul KARIMOV
Rassom
 Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
 Olovuddin ORIPOV

Manzilmiz:
 Toshkent shahri,
 Navoiy ko'chasi, 30-uy.
 Indeks: 100129.
 Obuna indeksi: 198.
 e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
 (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
 Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
 Haftaning dushanba kuni chiqadi.
 Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 52761
Buyurtma N: J 9207